O‘ZBEK TILIDAGI ILMIY MATNLARDA REFERENSIAL VA DEYKTIK KO‘RSATISHNING IFODALANISHI

Bozorova Munisa SamDChTI, Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot o‘zbek tili agromatnlarida diskursida deyksis va referensiallik hodisalarining pragmalingvistik tabiatini yoritishga bag‘ishlangan. Ishda zamon (temporal) deyksisining ilmiy bayonni shakllantirishdagi referensial-intensial operatorlik vazifasi hamda uning o‘ziga xos leksik-grammatik ifodalanishi tahlil qilinadi. Agromatnlarda temporal lokallashuvning nafaqat an’anaviy payt ravishlari, balki ijtimoiy-madaniy mazmun kasb etuvchi taqvimli birliklar orqali voqelanishi qiyosiy-tahliliy uslubda ochib berilgan. Tadqiqot natijalari agrosanoat ilmiy diskursida deyktik markazlashuvning pragmatik mundarijasini aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: deyksis, pragmatika, agromatn, temporal deyksis, referensiallik, ilmiy diskurs, taqvimli belgilar, deyktik markaz, origo.

Zamonaviy pragmalingvistikaning dolzarb muammolaridan biri – til birliklarining nutqiy voqelanishida ishora va ko‘rsatish parametrlarini aniqlashdir. “Deyksis” hodisasi yunoncha *deixis* – ko‘rsatish, ishora qilish ma’nosini berib, muloqot jarayonida so‘zlovchi, tinglovchi va bayon etilayotgan voqelikning koordinata o‘qlarini belgilab beruvchi universal vosita sanaladi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligiga oid ilmiy matnlar, ya’ni agromatnlarda deyktik birliklarning ahamiyati beqiyos, chunki bunday matnlarda axborotning mantiqiy aniqligi va vaqt-makon munosabatlarining qat’iy belgilanishi birlamchi talabdir. Agromatnlarda deyksis shunchaki grammatik ko‘rsatkich emas, balki muallifning illokutiv maqsadini amalga oshiruvchi pragmatik vositadir. Agrosanoat sohasidagi tadqiqot natijalarining universalligi va ayni paytda ularning ma’lum bir vaqt oralig‘iga daxldorligi deyktik vositalar yordamida

muvozanatga keltiriladi. Ushbu maqolada o‘zbek agromatnlarining referensial tuzilishida zamon deyksisining o‘rni pragmalingvistik tahlil obyekti sifatida tanlangan.

Deyksis hodisasining tabiati haqidagi nazariy qarashlar ushbu tizimning ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatadi. Pragmalingvistika sohasidagi yetakchi olimlarning quyidagi xulosalari agromatnlar tahlili uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ch. Filmor bu haqida fikr bildirib uni quyidagicha ta’riflaydi: “Zamonni belgilash uchun har bir tilda taqvimli so‘zlar mavjud. So‘zlovchi belgilab berilayotgan vaqtni taqvimli o‘lchovga yoki o‘zining “origo”siga, ya’ni egosentrik asosiga ko‘ra aniqlaydi”. Agromatnlarda muallif “origo”si ko‘pincha subyektivlikdan qochib, ob'ektiv ilmiy vaqt o‘lchoviga intiladi.S. Levinsonga ko’ra, vaqtni bayon etishni kodlash asosida belgilash lozim. Bunda “kodlash vaqti” (so‘zlovchi aytayotgan vaqt) va “qabul qilish vaqti” (tinglovchi tushunadigan vaqt) o‘rtasidagi farqlarni inobatga olish zarur. Ilmiy matnda ushbu ikki vaqt oralig‘idagi tafovut minimal darajaga tushirilishi, ya’ni ma'lumotning o‘quvchi tomonidan noto‘g'ri interpretatsiya qilinmasligi ta'minlanishi shart. Deyktik iboralar miqdori chegaralangan bo‘lishiga qaramasdan, juda keng ko‘lamda qo‘llaniladi va ular har bir alohida holatda o‘ta boy kommunikativ mazmun ifodalaydi deya fikr bildirgan Yulning fikriga qo’shilgan holda aytish lozimki, agromatnlarda cheklangan miqdordagi temporal birliklar butun bir qishloq xo‘jaligi siklini qamrab olish imkoniyatiga ega. Deyktik belgilarning, xususan zamon deyksisining pragmatik mundarijasi bevosita kontekst va so‘zlovchi yoki yozuvchining kommunikativ maqsadi, muloqot intensiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Safarov ta’kidlaganidek, taqvimli birliklar (masalan, «dushanba») matn ichida o‘zining to‘liq deyktik mazmunini topishi uchun aniqlovchilar *o‘tgan, kelgusi* yordamiga muhtojlik sezadi.

Agromatnlarda obyektlarga ishora qilish - referensiya jarayoni deyktik birliklar orqali yanada konkretlashadi. Bu jarayonda shaxs, makon va zamon koordinatalari o‘zaro integratsiyalashgan holda referensial-intensial operatorlar vazifasini bajaradi.

o‘zbek va ingliz tillaridagi agromatnlarda deyktik ko‘rsatish tizimi quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi.

O‘zbek agromatnlarida zamon deyksisini shakllantiruvchi vositalar tizimi R.Davlatova tadqiqotlarida ko‘rsatilganidek, g‘oyatda rang-barangdir. Bunga zamon bildiruvchi payt ravishlari bilan bir qatorda so‘roq, belgilash, gumon olmoshlari hamda o‘rin-payt kelishigi shakllarini qabul qilgan ko‘rsatish olmoshlari kiradi. *Hozirgi kunda, oxirgi vaqtlarda, avvalgi, endigi* kabi sifat va ravishlar matnda temporal lokalizatsiyani ta’minlaydi. O‘zbek tili uchun xos bo‘lgan “Navro‘z” (21-martga ishora), “Hosil bayrami” kabi birliklar agromatnlarda zamon deyksisini hosil qiluvchi o‘ziga xos pragmatik markazlardir. “Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” (2019-yil) kabi birikmalar ilmiy bayonda vaqt koordinatasini aniq belgilaydi: *Hozirgi kunda Qashqadaryo viloyatida keng tarqalgan taqirli tuproqlarda mo‘l-ko‘l paxta va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlari etishtirilmoqda.*

Oxirgi vaqtlarda intensiv bog‘larni rivojlantirish... davr talabi bo‘lib bormoqda.»

“O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni – “ Hosil bayrami ” arafasida sohaning mirishkor dehqonlari... taqdirlandi.”

Ushbu misollardagi ajratilgan birliklar shunchaki vaqtni ko‘rsatib qolmay, balki fanning hozirgi rivojlanish bosqichiga ishora qiluvchi pragmatik yukka ega.

Agromatnlarda temporal birliklarning qo‘llanilishi ko‘p hollarda “cho‘zilgan vaqt” - *extended now* tushunchasi bilan bog‘liq. Sh. Safarov tahlillariga tayanadigan bo‘lsak, “hozirgi kunda” iborasi ilmiy diskursda nutq aytilayotgan ayni lahzani emas, balki umumiy ilmiy paradigmaning barqarorlik davrini anglatadi. Bu esa ilmiy natijalarning universalligini ta’minlashga xizmat qiladi. Fe’l zamonlari ham ushbu tizimda muhim o‘rin tutadi. A. Bondarko “davriy makonga ega bo‘lgan va ega bo‘lmagan” harakatlarni farqlashni taklif etgan bo‘lsa, E. Koshmider “umumiy haqiqat”ni ifodalovchi tuzilmalar vaqt oralig‘idan tashqarida ekanligini, ya’ni

“timeless” xarakterga egaligini qayd etadi. Agromatnlarda fe’lning hozirgi zamon shakli ko‘pincha ana shunday mavhumlik va umumiylikni, ya’ni biologik va agrokimyoviy jarayonlarning doimiyligini ifodalash uchun qo‘llaniladi.

O‘zbek tilidagi agromatnlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, zamon deyksisini ifodalovchi vositalar o‘zbek tilida ingliz tilidagiga nisbatan lingvomadaniy jihatdan boyroq va xilma-xildir. Ayniqsa, yil nomlari va Hosil bayrami kabi madaniy-ijtimoiy voqealar orqali temporal ishora qilish o‘zbek ilmiy diskursining o‘ziga xos milliy-madaniy qiyofasini belgilaydi. Agrosanoat terminologiyasini tartibga solishda deyktik vositalarning pragmatik xususiyatlarini inobatga olish mutaxassislar o‘rtasida axborot almashinuvi aniqligini oshirishga va ilmiy natijalarni to‘g‘ri interpretatsiya qilishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Бондарко А.В. Временная локализованность. // Теория функциональной грамматики. – Л.: Наука, 1987. – С. 210-233.
2. Davlatova R. O‘zbek tilining deyktik birliklari. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertasiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2020.
3. Fillmore Ch. Santa Cruz Lectures on Deixis. – Indiana: University linguistic Club, 1975.
4. Кошмидер Э. Очерк науки о видах польского глагола: Опыт синтеза. – М.: Наука, 1962.
5. Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1984.
6. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2008.
7. Уфимцева А.А. Типы словесных знаков. – М.: Наука, 1977.
8. Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 1996.